

# Milliy tibbiy sug'urtalash xizmati (NHIS) dasturida chet elliklarni avtomatik hisobga qo'shish to'grisida ariza

Xayrli kun! Sizga va sizning yaqinlaringizga salomatlik va baxt tilaymiz.

**2019 yil 16 iyuldan boshlab**, Koreya hukumati quyidagi siyosatni amalga kiritadi, unga binoan **olti yoki undan ortiq oylar davomida Koreyada istiqomat qilib kelayotgan koreys millatiga mansub chet elliklar va chet ellik fuqarolar tibbiy sug'urtaga ega bo'lishlari kerak**, u ularga kasalxonalarda yoki klinikalarda bo'lgan vaqtda Koreya fuqarolariga taqdim etilayotgan sug'urta imtiyozlarining xuddi shunday imtiyozlarni taqdim etadi.

Chet elliklar (koreys millatiga mansub chet ellik fuqarolar) **har oying 25-sanasigacha oldindan o'zlarining tibbiy sug'urta badallarini to'lashlari kerak**. Ushbu to'lov daromadning qimmatli manbai hisoblanadi, u patsiyent sog'ayishi vaqtida **shifoxonalarga yoki klinikalarga to'lanadigan tibbiy xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladi**.

※ **Agar siz yaqin kunlarda yashash joyingizni o'zgartirgan bo'lsangiz, manzilingizni o'zgartirilishi haqida NHISni (chet ellik mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi yoki uning filiali), Koreyaning immigratsiya xizmatini va mahalliy jamoat markazini xabardor qilishingiz kerak.**

## ■ Agar siz sug'urta badalini to'lamasangiz nima ro'y beradi? ■

- ① **(Tibbiy sug'urta taqdim etilmaydi) Shifoxona yoki klinikaga tashrif buyurishingizda** sizga keyingi oying birinchi kunidan boshlab, **toki to'lov to'liq hajmda amalga oshirilmagunicha, tibbiy sug'urta taqdim etilmaydi.**
- ② **(Ma'lum tranzaksiyalarni o'tkazishda imtiyozlar bo'lmaydi, masalan, vizaga ariza topshirilayotganda) Adliya vazirligi ma'lum tranzaksiyalarni o'tkazishda sizga foydali bo'lmagan shartlarni taqdim etadi.** Masalan, sizga yashash uchun **ruxsatnoma yoki uzoq muddatli viza olishga ariza kiritish huquqini taqdim qilinishi** rad etilishi mumkin.
- ③ **(To'lovni amalga oshirilmaganlik uchun jarimalar solish)** Agar taklif etilgan muddatni kechiktirish muddatida to'lov amalga oshirilmasa, hattoki eslatma berilganidan keyin ham, biz **majburiy tarzda qarzni undirib olamiz**, ko'chmas mulk, avtomobillar, jamg'armalar va hokazolarni xatlovga olishimiz mumkin.

Bundan tashqari, **biz shuningdek to'lovni qanday amalga oshirish haqidagi va matnli xabarlar yordamida muvofiq siyosatning yangilanishlari bo'yicha ma'lumotlarni muntazam taqdim etib boramiz.** Iltimos, **siz foydali ma'lumotlarni olib turishingiz mumkin bo'lishi uchun o'z telefon raqamingizni NHISda ro'yxatdan o'tkazing.**

Quyidagi variantlardan sizga kerakli bo'lganini tanlang.

- | **Avtomatik o'tkazma uchun ariza kiritish** Siz to'lov jarayonini avtomatlashtirishingiz va qo'ldan boy berilgan vaqt uchun bezovta bo'lmasligingiz mumkin.
- | **Elektron hisoblarni olish** Siz elektron pochta orqali elektron hisoblarni oson va qulay olishingiz mumkin.
- | **Mablag'larni qaytarish uchun o'zingizni hisobingizni raqamini ko'rsating** Agar siz mablag'larni qaytarib olish huquqiga ega bo'lsangiz, biz bank o'tkazmasi orqali pullarni darhol jo'natamiz.

**Milliy tibbiy sug'urtalash xizmati Prezidenti**